



KANALLARNI BETONLASH ORQALI YO'QOTISHLARNI OLDINI OLISH VA ISTEMOLCHILARGA SUVNI YETQAZISHNING ZAMONAVIY YECHIMLARI

Sh.Sh. Nuriddinov

*“TIQXMMI” MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti
“Gidrotexnika inshootlari va nasos stansiyalari” kafedrasida asistenti.*

N. Bobojonov.

“TIQXMMI” MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti talabasi

A. Maxmiyev

TIQXMMI” MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti talabasi.

Annotatsiya: *Hozirgi kunda aholi va qishloq xo'jaligi iste'molchilari tomonidan yer usti suvlaridan to'g'ri va oqilona foydalanish, ularni muhofaza qilish masalasi tobora muammoga aylanib bormoqda. Jahonda yuz berayotgan iqlim o'zgarishining natijasida mintaqamizda ham suv havzalarining suvsizlanishi, suv sarfining kamayishi, qishloq xo'jaligini rivojlantirish maqsadida yer usti suv manbalaridan ortiqcha foydalanish bilan bog'liq antropogen ta'sirlar kuzatilmoqda. Hozirgi vaqtga kelib suvni ortiqcha yo'qotishni oldini olish maqsadida mamlakatimizda ham keng qamrovli ishlar olib borilmoqda.*

Kalit so'zlar: *kanallarni betonlash, xo'jalik ekin maydonlari, oqova suv, suv xo'jaligi, beton qoplamali, tuproq o'zanli.*

KIRISH.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev raisligida 29 noyabr kuni qishloq xo'jaligida suv resurslaridan oqilona foydalanish va yo'qotishlarni kamaytirish chora-tadbirlari yuzasidan videosektor yig'ilishi bo'lib o'tdi. Qayd qilinishicha, O'zbekistondagi suv resurslarining 20 foizi o'zimizdan, katta qismi qo'shni davlatlarda shakllanadi. Iqlim o'zgarishi oqibatida suv manbalari yil sayin kamayib bormoqda. Transchegaraviy daryolarni boshqarish bo'yicha vaziyat ham jiddiy. Bularning ta'sirida 2030 yilga borib O'zbekistonda suv tanqisligi 15 milliard kub metr ga yetishi prognoz qilinyapti.

Yig'ilishda bu sohadagi muammolar, yangi tashabbus va vazifalar muhokama qilindi. Davlat rahbari bir yil davomida suvni tejash bo'yicha favqulodda ish tizimiga o'tilishini ta'kidladi. Bunda birinchi muhim vazifa-kanal va ariqlarni betonlash. Hisob kitoblarga ko'ra, betonlanmagan irrigatsiya tarmoqlarida yiliga o'rtacha 14 milliard kub metr yoki 36 foiz suv hech qanday iqtisodiy samarasiz isrof bo'layapti. Eng ko'p suv yo'qotishlari Qoraqalpog'iston Respublikasi, Namangan, Navoiy, Xorazm va Buxoro viloyatlariga to'g'ri keladi. Kanallarning oxirida joylashgan 175 ming gektar ekin maydonida suv ta'minoti juda og'ir.



Ishning maqsad va vazifalari. Kanallarni betonlash suv sarfini qisqartiradi. Bir necha yilning ketma-ket qurg'oqchil kelishi qishloq xo'jalik ekin maydonlarini tizimli sug'orish ishlariga ham salbiy ta'sir etmay qolmaydi. Ya'ni oqova suv hajmi yildan yilga kamayib bormoqda ekiladigan ekin turlari esa yil sayin oshmoqda. Albatta, bunday holda oqova suvdan oqilona, tejab foydalanish juda muhim.

Ma'lumki, yurtimizdagi qishloq xo'jalik ekin maydonlariga boruvchi kanal va ariqlarning katta qismi betonlashtirilmagan. Shuning hisobiga ulardan oqib o'tuvchi suvning yerga sizib ketishi natijasida suv sarfi yuqori bo'ladi. Buning oldini olish maqsadida joriy yilgi mavsum oldidan dala chetidagi ariqlar va kanallarni keng miqyosda betonlash ishlari boshlab yuborilgan.

Gidrotexnika inshootlari ixtiyoriy meliorativ tizimning asosiy elementi hisoblanadi. Ular yordamida suv to'planadi va tizimga uzatiladi, tizimning belgilangan ekspluatatsiya jarayoni (rejimi) ta'minlanadi, ya'ni suv oqimini taqsimlash va rostdash, ortiqcha suvlarni chiqarib yuborish, turli konstruksiyadagi suv o'tkazish inshootlarini tutashtirish va shu kabilar amalga oshiriladi.

Inshootlarning konstruktiv yechimi ularning belgilangan vazifasi, qurilish joyining geologik, gidrologik va iqlimiy sharoitlariga, suv taqsimoti sxemasi, qurilish usuli, mahalliy qurilish materiallari mavjudligi, qurilish industriyasi bazasi va boshqalarga bog'liqdir.

Daryolar va meliorativ tizimlardagi suv resurslarini boshqarish daryolardagi va tizim ichidagi (tarmoqdagi) gidrotexnika inshootlari yordamida amalga oshiriladi. Ularning ishonchli va samarali ishlashi esa ko'p jihatdan ishlab chiqilgan loyihalarning sifatiga bog'liq bo'ladi.

Gidrotexnika inshootlari loyahasini ishlab chiqish - bu ijodiy jarayon hisoblanadi. Inshootning vazifasi va ahamiyatiga qarab ularni loyihalash bir yoki ikki bosqichda olib boriladi.

Daryo gidrouzellaridagi yirik inshootlar loyihalaridan tortib kanallar qurilishigacha, ularni betonlash, gidrotexnik inshootlar qurilishi iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi va texnikaviy imkoniyatini uning barpo etilishi zaruratini asoslash bo'yicha kompleks masalalar izchillik bilan hal etiladi. Konstruksiyalarning va inshootlar joylashuvini bir nechta raqobatbardosh va variantlari bunyod etishga tavsiya etilgan variant keyingi to'liq maromiga yetkazish bilan ishlab chiqiladi. Tavsiya etiladigan variant inshoot qurilishi amalga oshiriladigan ishchi chizmalarigacha yetkaziladi.

Meliorativ tizimlardagi tarmoq inshootlari murakkab va o'ziga xos bo'lishi mumkin, lekin ko'p hollarda ular o'xshash sharoitlarda qurishga harakat qilinadi, bu yerda esa loyihachining vazifasi inshoot parametrlarini yetarlicha asoslash, namunaviy loyiha (yoki takroriy loyiha) ni tanlash va uni muayyan sharoitga bog'lashdan iborat bo'ladi.

Loyihani yetarli darajada ishlab chiqish uchun loyihachi mavjud shart-sharoitlar (relyef, gidrologiya, geologiya va boshqalar) ni tahlil qila olishi, inshootlar



konstruksiyalarini yaxshi bilishi, inshootlarni barpo etish texnologiyasi va uni qo'llash imkoniyatlaridan boxabar bo'lishi, tanlangan konstruksiyalar hisobini bajarish uslublarini qo'llay olishi va qurilish tufayli sodir bo'lishi mumkin bo'lgan oqibatlarini oldindan baholay olishi kerak.

Xususan, Qashqadaryo viloyatida suv xo'jaligi tashkilotlariga 256 ta 2 ming 476 kilometr magistral va xo'jaliklararo kanallar mavjud. Ma'lumotlarga ko'ra, ushbu kanallarning 1 ming 502 kilometr qismi betonlashtirilgan. Bundan tashqari klaster va fermer xo'jaliklari hisobidagi 20,4 ming kilometr ichki kanallar mavjud bo'lib, shundan 6,2 ming kilometr lotok, 2,2 ming kilometr beton qoplamali, 864 kilometr yopiq tarmoqli va 11,1 ming kilometr (54%) qismi tuproq o'zanli suv yo'llari hisoblanadi.

Davlatimiz rahbarining tegishli qarori bilan suv xo'jaligi tashkilotlari hisobidagi 406 kilometr (35 ta) kanalni bosqichma-bosqich betonlashtirish topshirig'i berilgan.

Asosiy qismi 316 kilometrlik 26 ta kanalni betonlashtirish tadbirlari Xitoy Xalq Respublikasining China CAMC Enginiring CO.LTD kompaniyasi bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan loyihalar tarkibiga kiritildi.

Dastlabki qiymat 54 million AQSH dollar. Hozir hukumat qarori loyihasi ishlab chiqilib kelishilmoqda. Bundan tashqari, qarorda Qamashi va G'uzor tumanlaridagi 25 ming gektar sug'oriladigan maydonlarning suv ta'minoti yaxshilash maqsadida Paxtzobod kanalini modernizatsiya qilishga Jahon bankining zarur mablag'lari jalb qilish va muzokaralarni amalga oshirish belgilangan.

Qo'shimcha qilib aytish joizki, hududlarda faoliyat yuritayotgan klaster korxonalar va fermer xo'jaliklarining o'z mablag'lari hisobidan ham kanal va ariqlarni betonlash ishlari bajarilmoqda. Maqsad suv sarfini kamaytirish va boridan unumli foydalanish.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda ushbu olib borilayotgan hamma ishlar suvni iloji boricha isrof qilmasdan oqilona foydalanish uchun ekanligi ko'rinib turibdi. Bir so'z bilan aytganda, bugun atrofimizda ro'y berayotgan suv bilan bog'liq ekologik muammolardan har birimiz tegishli xulosa chiqarib, suvni tejash va isrof qilmaslik tamoyilini kundalik mezonimizga aylantirishimiz zarur. Bugun bizga hayot va zavq ulashayotgan toza ichimlik suvidan kelajak avlod ham bizdek bahra olishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bakiyev M., Nosirov B., Xo'jaqulov R. Gidrotexnika inshootlari. -T.: «Bilim», 2009.
2. Bakiyev M., Majidov I., Nosirov B., Xo'jaqulov R., Rahmatov M. Gidrotexnika inshootlari. -T.: «Iqtisod-moliya», 2009.
3. QMQ 2.06.01-07. Gidrotexnika inshootlari. Loyihalashtirishning asosiy nizomlari. O'zb. resp. Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi. -T., 2007.
4. Internet saytlari.